

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**  
**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**"KELISHILDI"**

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
Vazirligi \_\_\_\_\_

2023-yil

**"TASDIQLAYMAN"**

Urganch davlat universiteti rektori  
B. Abdullayev

2023-yil



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA**  
**BAHOLAR MEZONI**

**« Chizmatasvir » va « Kompozitsiya »fanlari**

60210801 – Amaliy san'at (badiiy kulolchilik)

bakalavriat ta'lif yo'nalishi uchun

**Urganch - 2023 yil**

Dastur Urganch davlat universiteti kengashining 2023-yil  
apreldagi 4 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

“\_19\_”

Tuzuvchi:

Urganch davlat universiteti Tasviriy  
san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrasi katta o'qituvchisi  
Q.Ro'zmetov

Urganch davlat universiteti Tasviriy  
san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrasi o'qituvchisi N.Ataeva

Taqrizchilar:

Urganch davlat pedagogika instituti  
“San'atshunoslik” kafedrasi mudiri  
D.Sherov

## **KIRISH**

60210801-Amaliy san'at: badiiy kulolchilik ta'lif yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan fanlarning dolzarbliji, jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti to moyillari asaosida isloq qilishdagi ahamiyati va o'rni ohib beriladi.

60210801-Amaliy san'at: badiiy kulolchilik ta'lif yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va baholash mezonlarida ushbu yo'nalishning kunduzgi talim shakliga oqishga kirish bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar topshiriqlarini bajarish va ularni baholash mezonlari tartibini belgilaydi.

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dasturi mezonlarining murakkabligiga qo'yiladigan talablar asosan ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlarida o'qitiladigan fanlar va dasturlarida belgilangan vazifalarni qamrab oladi.

Respublikamizda badiiy ta'lif islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarni rivojlantirish, shuningdek, abituriyentlarda dizayn sohasi turlaridan kelib chiqib tasviri san'atdagi kasbiy mahorat, amaliy ko'nikmalarining shakllanganlik va ijodiy faoliyatga moyillik darajasini aniqlashga qaratilgan.

### **1. Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar.**

1. 60210801-Amaliy san'at: badiiy kulolchilik ta'lif yo'nalishi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lif shakliga o'qishga kiruvchi abiturientlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni “Chizmatasvir” va “Kompozitsiya” fanlaridan topshiradi.

2. “Chizmatasvir” fanidan “O'simlik shakllari rozetka ishtirokidagi natyurmort” uslubiy fonda qo'yiladi. Rozetkadagi o'simlik shakli, plastikasi chuqur tahlil qilinishi shart. Natyurmortni joylashtirish jarayonida atrof muhit inobatga olinishi kerak bo'ladi. Predmetlar proporsiyasi katta va kichik hajm ko'rinishlariga ahamiyat berilishi lozim. Bunda diqqatilik, nafosat va yuksak estetik did talab qilinadi.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonda “ Chizmatasvir ” amaliy ish uchun 160 daqiqa vaqt ajratiladi.

4. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

<b>Nº</b>	<b>Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
	<b>Rangtasvir fani bo‘yicha amaliy ish</b>	<b>Jami 63 ball</b>
1	Natyurmortning kompozitsion joylashuvi	0-7 gacha ball
2	Proporsiyalarni to‘g‘ri topilishi	0-7 gacha ball
3	Rakurs holatining topilish darajasi	0-6 gacha ball
4	Katta va kichik shakllarning to‘g‘ri joylashganligi	0-6 gacha ball
5	Yorug‘ va soyani ishlanishidagi mahorat	0-6 gacha ball
6	Yuzaga to‘g‘ri joylashtirish	0-6 gacha ball
7	Rozetkadagi o‘simlik shakli plastikasi ko‘rinishi topilganligi	0-6 gacha ball
8	Rozetkani atrof muhit bilan bog‘langanligi	0-6 gacha ball
9	Chizmatasvirda ketma-ketlikning to‘g‘ri bajarilishi	0-6 gacha ball
10	Chizmatasvirning tugallanish darajasi	0-7 gacha ball

5. “Kompozitsiya” fanidan abiturient topshiriqni turli geometrik (doira, to‘rtburchak, uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, oltiburchak) shakllardan tuzilgan naqshni qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirish, asarning kompozitsion g‘oyaviy mazmuni, badiiy va g‘oyaviy ifodada ranglardan to‘g‘ri foydalanish, geometrik shakllardan tuzilgan naqshni to‘g‘ri topilganligi, amaliy san’at mutaxassisligiga mosligi, kompozitsiya markazining to‘g‘ri topilganligi, mavzuning mazmuni, ma’nosi hamda ranglar uyg‘unligi, ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasida mahorat bilan yechilganligi va tugatilish darajasi talab etiladi.

6. Kasbiy (ijodiy) imtihonda “Kompozitsiya” fanidan amaliy ishni bajarish uchun 160 daqiqa vaqt ajratiladi.

7. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

<b>T/r</b>	<b>Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
	<b>Kompozitsiya fani bo‘yicha amaliy ish</b>	<b>Jami 93 ball</b>
1	Tuzilgan kompozitsiyani qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirilganligi	0-5 gacha ball
2	Kompozitsiya g‘oyasi	0-5 gacha ball
3	Kompozitsiya mazmuni va mohiyati	0-5 gacha ball
4	Kompozitsiyani mutaxassislikka xosligi	0-5 gacha ball

5	Kompozitsiyaning qonuniyathalaridan foydalanilganligi	0-5 gacha ball
6	Asarning kompozitsion yechimi	0-5 gacha ball
7	Kompozitsiyada bezaklardan to‘g‘ri foydalanganligi	0-5 gacha ball
8	Asarning kompozitsion ahamiyati	0-5 gacha ball
9	Badiiy va g‘oyaviy ifodasi	0-5 gacha ball
10	Ranglardan to‘g‘ri foydalanilganligi	0-5 gacha ball
11	Kompozitsiyani to‘g‘ri topilganligi	0-5 gacha ball
12	Ranglardan foydalanish mahorati	0-5 gacha ball
13	Kompozitsiya markazining to‘g‘ri topilganligi	0-5 gacha ball
14	Kompozitsiyani murakkablik darajasi	0-5 gacha ball
15	Ranglar uyg‘unligi	0-5 gacha ball
16	Kompozitsiyani ishlanish mahorati	0-5 gacha ball
17	Kompozitsiyadagi elementlarning bir – biriga mutanosibligi	0-5 gacha ball
18	Kompozitsiyani pardozlash	0-4 gacha ball
19	Kompozitsiyani tugallanish darajasi	0-4 gacha ball

## **2. Kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish tartibi**

60210801-Amaliy san’at: badiiy kulolchilik ta’lim yo‘nalishining kunduzgi va sirtqi ta’lim shakliga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda ajratilgan vaqt davomida kompozitsiyadan berilgan mavzu asosida bajaradi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirillgan guruhlar kesimida kasbiy (ijodiy) imtihon maxsus jihozlangan auditoriyalarda o‘tkaziladi. Abituriyentlar maxsus tekshiruvdan o‘tkazilib, belgilangan tartib qoidalarga amal qilgan holda bino va auditoriyalarga kiritiladi.

## **3. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo‘yicha apellyasiya tartibi.**

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarning natijalariga ko‘ra, natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida oliy ta’lim muassasi tomonidan qabul komissiyasining Apellyasiya kengashiga murojaat qilishlari mumkin.


Arizalar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari to‘g‘risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.

## **USLUBIY KO'RSATMALARDAN NAMUNALAR**

### **CHIZMATASVIR FANI**

**Vazifa:** O'simlik shakldagi rozetka ishtirokida tuzilgan natyurmort.

**Namunalar:**



## **KOMPOZITSIYA FANI**

60210800 -Amaliy san'at (badiiy kulolchilik)

**Vazifa:**

**Namunalar:**

